

## 2020-2021-YILLARDA AFG‘ONISTONDA ICHKI VAZIYATNING IZDAN CHIQUISHI VA “TOLIBON” HARAKATINING HOKIMIYAT UCHUN KURASHI

*Aziz Ro‘ziqulov*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Afg‘oniston Islom Respublikasi (AIR)da ichki siyosiy vaziyatning izdan chiqishi, uning sabablari, AIR hukumatining ushbu inqirozni oldini olish hamda mamlakatda barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirgan say-harakatlari, xususan muxolifatdagi “Tolibon” harakati bilan olib borgan muzokaralari va uinng yakunlari, shuningdek Prezident A.G‘ani yetakchiligidagi afg‘on hukumatining oliy hokimiyatni saqlab qolishga oid samarasiz chora-tadbirlari atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ichki vaziyatning izdan chiqishi, “Tolibon” harakati, Afg‘oniston Islom Respublikasi, Afg‘oniston Islom Amirligi, hokimiyat uchun kurash, Doxa kelishuvlari, afg‘onlararo muzokaralar, AIR Qurolli Kuchlari.

XX asr ikkinchi o‘n yilligi yakunida Afg‘onistonda ichki vaziyat birmuncha keskinligicha qolaverdi. Garchi xalqaro hamjamiyatning ulkan say-harakatlari bilan Afg‘onistonda g‘arb davlatlari andozasiga ko‘ra davlat tuzilmalari, shu jumladan xavfsizlikni ta‘minlashga mas‘ul tuzilmalar to‘laqonli tarzda shakllantirilgan va ularning faoliyati tegishli tartibda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, mamlakatdagi umumiy ichki vaziyat beqarorligicha qolaverdi, tinch aholi orasidan qurbonlar soni oshishda davom etdi.

2020 yil iyun oyida “Tolibon” harakati va Afg‘oniston hukumati muzokaralarning birinchi raundi Doxada o‘tkazildi [1]. Keyinchalik ham ushbu formatda bir qator uchrashuvlar va muloqotlar o‘tkazildi. Jumladan, 2020 yilning 12 sentabrida AIR hukumati va “Tolibon” vakillari Doxa shahrida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tinchlik muzokaralarini olib borish uchun rasman uchrashdilar. Afg‘oniston hukumatining 21 kishilik (shu jumladan, to‘rt nafar ayol) muzokaralar guruhiga AIR Xavfsizlik Xizmati sobiq rahbari va Prezident A.G‘anining ittifoqchisi Muhammad Ma‘sum Stanekzay boshchilik qildi [2, 1-3].

“Tolibon” muzokara guruhi ham 21 kishidan iborat (barchasi erkaklar) bo‘lib, unga “Tolibon” harakati sud organi rahbari, “Tolibon” yetakchisi Haybatulla Oxundzodaga yaqin diniy ulamolardan biri Mavlaviy Abdul Hakim Ishoqzoy

**(10th international scientific and practical conference)**

(Pokistondagi Haqqoniya madrasasini tugatganligi va ushbu madrasa ulamosi bo'lganligi bois Abdul Hakim Haqqoniy nomi bilan ham tanilgan) rahbarlik qildi [3, 67-68].

Muzokaralarning asosiy masalalari sifatida ikkita muhim mavzu – **zo‘ravonlikni kamaytirish va kelgusidagi davlat boshqaruvi** masalasi ustuvorlik qilgan bo‘lsa-da, tomonlar bu borada kelishuvga erisha olmadilar. Xususan, muzokaralar jarayonida Afg‘oniston hukumati doimiy o‘t ochishni to‘xtatishga ustuvor ahamiyat bergan bo‘lsa-da, “Tolibon” tomoni buni rad etdi.

Tomonlarning Afg‘oniston kelajagi, jumladan, Afg‘oniston davlatining tuzilishi va afg‘on fuqarolari, ayniqsa ayollar huquqlari xususidagi qarashlarida ham katta farqlar saqlanib qoldi. Shuningdek, Afg‘oniston hukumati nomidan muzokaralarda ishtirok etgan vakillar islomni davlat dini sifatida belgilagan Afg‘oniston konstitusiyasi va demokratik institutlarini saqlab qolish yuzasidan o‘z qat‘iyatlarini bildirib o‘tishgan edi.

Natijada ushbu davrda olib borilgan afg‘onlararo muloqot va muzokaralar samarasiz tugadi, o‘t ochish to‘xtamadi, muxolifat qurolli hujumni davom ettiraverdi, jamiyat orasida ishonchsizlik ortdi va bular umumiy jarayonga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Mazkur muzokaralar natijasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar aniq belgilab olingan yo‘l xaritasining ham yo‘qligi [4, 18] muloqot va muzokaralarning natijadorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligini qayd etib o‘tish joiz.

2021 yilning may oyidan boshlab AQSH qo‘shinlarining Afg‘oniston hududidan olib chiqib ketilishi boshlanishi bilan toliblarning ham mamlakat hududidagi harbiy harakatlari birmuncha faollashdi va ular birin-ketin mahalliy hududlarda o‘z nazoratlarini o‘rnata boshladilar. Ushbu jarayonda aksariyat hollarda AIR Qurolli Kuchlari yoki boshqacha aytganda Afg‘oniston Milliy Mudofaa va Xavfsizlik Kuchlari (ingliz tilidagi manbalarda Afghanistan National Defense and Security Forces – ANDSF shaklida berilgan) o‘z harakatsizligini namoyon qilib, toliblarning hatti-harakatlariga javoban hech qanday qarshi harakatlarni amalga oshirmadi va amaliyot o‘tkazmadi. Garchi, 2020 yil aprel oyi holatiga Afg‘oniston Milliy Armiyasi saflarida amalda bo‘lgan harbiy xizmatchilar soni 182 ming nafardan ortiq bo‘lsa-da, shu bilan birga Afg‘on Milliy Politsiyasi saflarida amalda bo‘lgan politsiya xodimlari soni qariyb 100 ming nafarni tashkil etsa-da [5, 74], shuningdek Afg‘oniston Milliy Xavfsizlik Boshqarmasi saflarida ham 10 ming nafardan ortiq xizmatchilar xizmat qilishiga qaramasdan, ushbu miqdor toliblarning mamlakat bo‘ylab amalga oshirgan harbiy harakatlarining oldini olishga oqozlik qilganligini alohida ta‘kidlab o‘tish zarur.

2021 yilning may oyidan boshlab AQSH qo‘shinlarini Afg‘onistondan olib chiqish jarayoni boshlanishi bilan toliblar ancha faollashganliklarini ta’kidlab o‘tish lozim. Aynan shu voqeadan so‘ng butun mamlakat bo‘ylab “Tolibon” harakati o‘z nazoratini kengaytira boshladi va may oyining oxiri – iyun oyining boshlarida toliblar Afg‘onistondagi jami 400 dan ortiq tumanning 100 tasi ustidan o‘z nazoratlarini o‘rnatgan bo‘lsa [6], vaqt o‘tishi bilan ularning harakatlari jiddiy tus ola boshladi hamda iyul oyining so‘nggi o‘n kunligida toliblar mamlakatdagi 200 dan ortiq tumanni o‘z nazoratlariga oldilar [7, 7]. Shu yerda toliblarning harakatlaridagi e‘tibor qaratish lozim bo‘lgan bir jihati borki, dastlabki bosqichda toliblar faqat tumanlarni o‘z nazoratlariga olish bilan cheklanganligini ko‘rishimiz mumkin. Tahlillarimizga ko‘ra, ushbu jarayonda toliblar o‘ziga xos taktikani qo‘llaganliklari ayon bo‘ladi, ya’ni AIR Qurolli Kuchlari asosan mamlakatdagi 34 ta viloyat markazlarida joylashtirilganligini yaxshi bilgan toliblar afg‘on armiyasi tuzilmalari bilan aksariyat hollarda bevosita qurolli to‘qnashuvga borishdan qochishgan hamda afg‘on armiyasi tuzilmalari mavjud bo‘lmagan tumanlarni o‘z nazoratlariga olishga harakat qilishganligi namoyon bo‘ladi.

2021 yilning yoz oylaridagi toliblarning mamlakat hududini o‘z nazoratiga olishiga javoban AIR Qurolli Kuchlari aytarli harakatlarni olib bormadi. Natijada toliblar dastlabki bosqichda faqat tumanlarni o‘z nazoratiga olish bilan cheklangan bo‘lsa, iyul oyining oxiri va avgust oyining birinchi yarmidan boshlab viloyat markazlarini qo‘lga kiritish bo‘yicha harakatlarni olib borib, avgust oyining birinchi o‘n kunligida 20 dan ortiq viloyat markazlari ustidan o‘z nazoratini o‘rnatgan toliblar 15 avgustga kelib barcha viloyat markazlari hamda mamlakat poytaxti Kobulni ham egallashdi [8, 4-5].

Afg‘onistonni qayta tiklash bo‘yicha AQShning maxsus bosh inspektori (Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) of United States of America) ma’lumotiga ko‘ra, 2016 yilning birinchi choragida Afg‘oniston Milliy Mudofaa va Xavfsizlik Kuchlari saflarida 326 ming nafar atrofida (Afg‘oniston Milliy Armiyasi saflarida 180 ming nafarga yaqin, Afg‘on Milliy Politsiyasi saflarida 146 ming nafardan ziyod) bo‘lgan bo‘lsa, 2020 yilning birinchi choragida qariyb 282 ming nafarni tashkil etgan [9, 75]. Bu orqali Afg‘oniston Qurolli Kuchlari vaqt o‘tgan sayin kamayib borganligini ko‘rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda “Tolibon” harakatining Afg‘onistonda hokimiyatni qayta qo‘lga kiritishi arafasida mamlakat aholisi qarashlarida ham amaldagi AIR hukumatiga nisbatan ishonchsizlik va mamlakat kelajagi xususidagi xavotirlar mavjud edi.

Afg‘oniston Milliy Mudofaa va Xavfsizlik Kuchlarida ham bir qator muammolar mavjudligi ushbu kuchlarning samarali va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishiga salbiy ta’sir qilganligini qayd etib o‘tish joiz. Jumladan, harbiy

**(10th international scientific and practical conference)**

xizmatchilarga to‘lanadigan oylik maoshlari miqdorining pastligi va o‘z vaqtidan kechiktirilishi, xizmat qilish uchun yetarli shart-sharoitlarning yaratilmaganligi, armiya saflaridagi korrupsiya holatlarining ko‘pligi harbiy xizmatchilarning ruhiy va jangovarlik holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligi ma‘lum bo‘ladi. Shu bilan birga, afg‘on fuqarolarining mamlakat armiyasi saflarida harbiy xizmatni o‘tash xohishining pastligi hamda AIR Qurolli Kuchlari saflarida dezertirlikning yuqori miqdori saqlanib qolganligi ham mamlakatning umumiy mudofaa salohiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. What to Know About the Afghan Peace Negotiations / Center for Preventive Action Overview. Council on Foreign Relations. September 11, 2020. <https://www.cfr.org/article/what-know-about-afghan-peace-negotiations>
2. Clayton, Th. Intra-Afghan Talks Commence in Doha, Qatar / Council on Foreign Relations. September 16, 2020. – P. 1-3. <https://crsreports.congress.gov/product/pdf/IN/IN11502/1>
3. Abbas, H. The Return of the Taliban. Afghanistan After the Americans Left. – New Haven: Yale University Press, 2023. – P. 67-68.
4. Helali, B. An Insider’s View: Lessons from the Afghan Peace Process, 2001-2021. Folke Bernadotte Academy (FBA) Report. January 2024. – P. 18. DOI: <https://doi.org/10.61880/JNPH7128>
5. Quarterly Report to the United States Congress. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction of United States of America. 30 April 2020. – P. 74. <https://goodtimesweb.org/overseas-war/2020/2020-04-30qr.pdf>
6. Clark, K. and Ali, O. A Quarter of Afghanistan’s Districts Fall to the Taleban amid Calls for a ‘Second Resistance’ / Afghanistan Analysts Network. July 2, 2021. <https://www.afghanistan-analysts.org/en/reports/war-and-peace/a-quarter-of-afghanistans-districts-fall-to-the-taleban-amid-calls-for-a-second-resistance/>
7. Clayton, Th. Taliban Government in Afghanistan: Background and Issues for Congress / Council on Foreign Relations. November 2, 2021. – P. 7. <https://crsreports.congress.gov/product/pdf/R/R46955>
8. Collapse of the Afghan National Defense and Security Forces: An Assessment of the Factors That Led to Its Demise. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction (SIGAR) Interim Report. May 2022. – P. 4-5.
9. Quarterly Report to the United States Congress. Special Inspector General for Afghanistan Reconstruction of United States of America. 30 April 2020. – P. 75. <https://goodtimesweb.org/overseas-war/2020/2020-04-30qr.pdf>